



**ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

ANDIJON VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2022- YIL
YANVAR-APREL**

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, Andijon viloyatida jami **1823,4** mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **106,2 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Yirik qurilish tashkilotlari

23,1

1,6

75,3





Norasmiy sektor

Kichik korxona
va mikrofirmalar

2022- yil - yanvar-aprel holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, birlikda



Shahar va tumanlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yil yanvar-aprel oylari bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 106,2 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 75,9 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,1 foizga kamaydi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,4 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,1 foizga ko'paygan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 12,7 foiz ulushni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.05.2021	01.05.2022	
ViLOYAT bo'yicha jami	3218	3271	101,6
Andijon sh.	1373	1293	94,2
Xonobod sh.	68	66	97,1
Oltinko'l	135	146	108,2
Andijon	224	230	102,7
Baliqchi	106	122	115,1
Bo'ston	96	115	119,8
Buloqboshi	76	83	109,2
Jalaquduq	77	79	102,6
Izboskan	139	169	121,6
Ulug'nor	50	50	100,0
Qo'rg'ontepa	83	100	120,5
Asaka	259	282	108,9
Marhamat	144	135	93,8
Shahrixon	213	213	100,0
Paxtaobod	89	93	104,5
Xo'jaobod	86	95	110,5





Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-aprel oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Viloyat bo'yicha jami	1823,4	28,4	1 373,3	421,7
Andijon sh.	635,4	24,4	520,6	90,4
Xonobod sh.	53,7	-	47,8	5,9
Oltinko'l	74,7	-	52,6	22,1
Andijon	227,9	-	208,1	19,8
Baliqchi	35,4	-	21,0	14,4
Bo'ston	76,7	-	58,8	17,9
Buloqboshi	30,2	-	15,3	14,9
Jalaquduq	64,9	1,3	31,9	31,7
Izboskan	70,8	-	51,7	19,1
Ulug'nor	34,3	2,7	21,2	10,4
Qo'rg'ontepa	59,3	-	30,8	28,5
Asaka	62,3	-	31,2	31,1
Marhamat	95,4	-	64,9	30,5
Shahrixon	165,3	-	125,6	39,7
Paxtaobod	73,1	-	48,7	24,4
Xo'jaobod	64,0	-	43,1	20,9



2022- yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 28,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 67,1 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 0,8 % punktga kamaydi, 1,56 % ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Andijon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 85,9 % yoki 2021-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,5 marta),

2022- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 75,3 % to'g'ri kelib, 2021- yil ko'rsatkichiga nisbatan 1,4 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 105,3 % ni tashkil etgan holda 1373,3 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



75,3

2022- yil
yanvar-aprel


73,9

2021- yil
yanvar-aprel



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Andijon shahri (520,6 mlrd so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 37,9 %), Andijon tumani (208,1 mlrd so'm yoki 15,1 %), Shahrixon tumani (125,6 mlrd so'm yoki 9,1 %)ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,1 %** ni tashkil etdi yoki **421,7 mlrd so'm** miqdorida qayd etildi. 2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan **113,1 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda


Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **77,0 mlrd so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1746,4 mlrd so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,2 %** va **95,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yil
yanvar-aprel



Davlat mulki

2022- yil
yanvar-aprel



Nodavlat mulk

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya,
kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022-yil yanvar-aprel oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni **qurishga** tegishli. Jami qurilish ishlarining **62,3 %** yoki 1162,7 mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

2,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 28,4 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 767,0 mlrd so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **66,0 %** ni tashkil etdi.

66,0 %


31,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 367,3 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **31,6 %** ni tashkil etdi.

	Qurilish ishlari, mlrd so‘m	O‘sinh sur‘ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Viloyat bo‘yicha jami	1823,4	106,2	1162,7
Andijon sh.	635,4	107,4	403,4
Xonobod sh.	53,7	102,3	32,4
Oltinko‘l	74,7	108,4	50,9
Andijon	227,9	100,5	133,3
Baliqchi	35,4	106,7	23,7
Bo‘ston	76,7	106,1	55,5
Buloqboshi	30,2	111,1	23,0
Jalaquduq	64,9	103,0	46,1
Izboskan	70,8	105,6	37,8
Ulug‘nor	34,3	108,4	22,7
Qo‘rg‘ontepa	59,3	103,6	40,8
Asaka	62,3	108,5	43,9
Marhamat	95,4	106,8	60,8
Shahrixon	165,3	108,5	107,2
Paxtaobod	73,1	114,7	43,3
Xo‘jaobod	64,0	102,5	37,9



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 1,2 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,8 % punktga ko'payib, 68,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa yanvar-aprel oylariga nisbatan 0,7 % punktga kamayib, 30,5 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 4,3 % ni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 3,7 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 95,7 % 3,8 % punktga ko'paydi.


ulushi % da



2021- yil
yanvar-aprel

2022- yil
yanvar-aprel

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,4 % punktga kamaydi va 1,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 98,7 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,4 % punktga ko'paydi.





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar-aprel**


	Qurilish ishlari, mlrd so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Viloyat bo'yicha jami	1823,4	1384,1	207,6	231,7
Andijon sh.	635,4	499,2	62,0	74,2
Xonobod sh.	53,7	33,9	9,6	10,2
Oltinko'l	74,7	47,2	12,6	14,9
Andijon	227,9	160,6	34,2	33,1
Baliqchi	35,4	26,2	5,1	4,1
Bo'ston	76,7	54,0	10,6	12,1
Buloqboshi	30,2	21,5	4,7	4,0
Jalaquduq	64,9	47,1	7,7	10,1
Izboskan	70,8	49,9	10,8	10,1
Ulug'nor	34,3	25,0	4,7	4,6
Qo'rg'on tepa	59,3	45,8	6,5	7,0
Asaka	62,3	46,2	7,3	8,8
Marhamat	95,4	79,1	7,3	9,0
Shahrixon	165,3	138,0	12,5	14,8
Paxtaobod	73,1	59,9	6,0	7,2
Xo'jaobod	64,0	50,5	6,0	7,5



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
hududlar kesimida qurilish ishlari
2022-yil yanvar-aprel



ulushi % da



**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (74) 228-29-37